FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09. 2024.Fil/Ped.05.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

IBRAGIMOVA DILAFRUZ SHUXRATOVNA

TALABALARNING CHET TILDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI INGLIZ BADIIY ASARLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH LINGVOTEXNOLOGIYALARI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2025

UDK 378.091.3:811.111:821

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical sciences

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09. 2024.Fil/Ped.05.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

IBRAGIMOVA DILAFRUZ SHUXRATOVNA

TALABALARNING CHET TILDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI INGLIZ BADIIY ASARLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH LINGVOTEXNOLOGIYALARI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Ped8652 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (rus, o'zbek, ingliz (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb sahifasi (www.fdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Erkaev Elmirza Temirovich** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Iminaxunova Iroda Xuseinovna** pedagogika fanlari doktori (DSc) professor
	Saidumar Saydaliyev Saidaliyevich pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat chet tillari instituti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.Fil/Ped.05.09 raqamli ilmiy kengashning «11» 12 2025-yil soat 13 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Al-Farg'oniy ko'chasi, 42-uy. Tel.: (99873) 244-66-02; faks: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (634 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-71-28).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «29» 11 da tarqatildi.
(2025 yil «29» 11 dagi 13 -raqamli reyestr bayonnomasi)

M.R.Kadirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.Y.Mamajonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

D.A.Ganiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta’lim tizimida o‘qish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish muhim o‘rinni egallaydi va chet tillarni o‘rganish samaradorligini kafolatlaydi. Shuningdek, jadal globallashuv jarayonida axborotlarning turli yo‘l va vositalar orqali kirib kelishi o‘qishni o‘rgatishning ta’lim, mehnat, rekreatsion va ijtimoiy hayotda markaziy o‘rin egallashini ham ko‘rsatadi. Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan SEFR hujjatida o‘qish malakalari rivojlantirilishi zaruriy deb belgilangan eng dolzarb vazifalardan biri sifatida e’tirof etilib, yuqori ahamiyatga molik hamda ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning muhim strategiyasi deb belgilangan. Chet tilda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida insonning kundalik hayoti va uning o‘qish faoliyati bir-biri bilan chambarchas bog‘liq degan xulosa olindi, chunki o‘qish nafaqat ta’lim, balki ijtimoiy va professional sohalarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Dunyoning barcha mamlakatlarida yakuniy davlat imtihonlarining qariyb 50 foizi o‘qish ko‘nikmalari bilan bog‘langan.

Dunyoda ta’lim natijalarini baholash bo‘yicha IEA (Ta’lim natijalarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi - International Association for the Evaluation of Educational Achievement), o‘qishning ikki turini, badiiy adabiyotlarni o‘qish malakalari, axborot olish hamda uni o‘zlashtirilganlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan PIRLS kabi bir qator fundamental loyihalar mavjud bo‘lib, ular dunyoning turli mamlakatlaridagi o‘quvchilarning matnxonlik va matnni tushunish sifatini baholash, shuningdek, milliy ta’lim tizimlaridagi farqlarni aniqlash maqsadida yaratilgan. Mazkur loyihalarning konseptual qoidalariga muvofiq, badiiy va ilmiy - ommabop matnlarni o‘qishni o‘rgatishning innovatsion yondashuvlari va texnologiyalarini optimallashtirish, chet tilda o‘qish malakalarini baholash va matnni tushunishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ana shu jihatdan talabalarning madaniyatlararo muloqotga erkin integratsiyalashuvini ta’minlaydigan o‘qish kompetensiyasini oshirish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy ta’lim tizimi sifatiga qo‘yilayotgan talablarning ortib borishi natijasida xalqaro malaka talablari asosida yuqori malakali, intellektual rivojlangan, raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, innovatsion ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish izchil davom ettirilmoqda. Xususan, chet tilda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash, bo‘lajak ingliz tili mutaxassislarining chet tilni C1 darajada egallashi talabi ingliz badiiy asarlaridan samarali foydalanish zaruratini taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni[1], 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi

[1] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.-Тошкент.: Ўзбекистон. 2021.-Б.239.

PF-5847-son Farmonida, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018- yil 5-iyundagi PQ-37755-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini taminlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 34-son farmoni va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ularning amaliy ijrosini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz olimlari J.Jalolov, G.T.Maxkamova, S.Saydaliyev, L.T.Axmedova, T.Q.Sattarov, Sh.S.Alimov, U.Jumanazarov, N.M.Merganovalar bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining chet tilda kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish va takomillashtirish muammolari va ularning lingvistik, sotsiolingvistik, ijtimoiy-psixologik kabi jihatlarini qamrab olgan masalalar bilan, metodist olimlar F.SH.Alimov, G.Tojiboyev, U.Xoshimov va boshqalar masalaning didaktik jihatlarini tadqiq etganlar. Chet tilda o‘qish malakasini rivojlantirish masalalari J.Jalolov, Z.R.Abdujabborova, D.A.Saimnazarovlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Yurtimiz lingvodidaktikasida talaba/ o‘quvchilarning chet tilda kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirishda interfaol va o‘yin texnologiyalaridan foydalanish masalalari bilan M.Sh.Ro‘zmetova, N.J.Hamidova, D.Sh.Shavqiyeva, B.G.Qulmatov, S.A.Misirov, D.M.Isroilova va boshqalar shug‘ullanganlar.

MDH davlatlarida chet tilda kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyalarni takomillashtirishda dramadan foydalanish bo‘yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar N.V.Ivanova, E.A.Belyanko, E.A.Isakovich, E.V.Marchenko, L.X.Shayaxmetova, D.A.Rostovshchikov va boshqalarlarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan.

Xorijiy mamlakatlarda chet tilda o‘qish malakasini rivojlantirish masalalari M.F.Vest, S.D.Krashen, K.Gudman, C.Nutl, D.Noonan, D.Braun, V.Grabe, S.K.Berman tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Chet tilda kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirishda badiiy asarlardan foydalanish masalalari xorijiy olimlar J.Bloemer, E.Yansen va Van de Grift V., J.Kruz, X.Gong, A.Maley, A.Daff, Ch.Formen, X. Xoff, M.Middeke va boshqa bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. Chet tilda kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyalarni takomillashtirishda dramadan foydalanish C.Greenfader, L.Brouillett, P.Devis, L. Bessadet, K.Beatty, J.P.Dann, A.Harden, Marino, V.N.Dvi

Astuti, S.Xolden, S.M. Kao, G.Karkin, A.Maley, A.Daff, M.Saman, A.Sarichoban va boshqalarlarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan.

Shuni ta’kidlash joizki, chet tilda kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyalarini takomillashtirishda sahnalashtirish va dramadan foydalanish muammolari yurtimiz lingvodidaktikasida zaruriy darajada o‘rganilmagan.

Yuqorida nomlari keltirilgan lingvodidakt olimlar tadqiqotlarining dolzarbligini ta'kidlagan holda, ingliz tilida o‘qish va og‘zaki nutq kompetensiyalarini takomillashtirish masalalari ekstensiv o‘qish turi va og‘zaki muloqotni o‘rgatish kontekstida ko‘rib chiqilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg‘ona davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Chet tillari va adabiyotini o‘qitishning zamonaviy yondashuvlar” nomli yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi talabalarning ingliz tilida kommunikativ kompetensiyasini ingliz badiiy asarlari asosida takomillashtirish lingvotexnologiyasi bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo‘lajak o‘qituvchilarning chet tilda kommunikativ kompetensiyasining mohiyati va mazmunini aniqlash va oliy ta’lim muassasalarida ingliz badiiy asarlarni o‘qitish holati va muammolarini o‘rganish;

talabalarning chet tilda kommunikativ kompetensiyasini oshirish uchun badiiy asarlardan foydalanish lingvotexnologiyalarini ishlab chiqish va takomillashtirish;

ingliz tilidagi badiiy asarlardan foydalanish bo‘yicha mashqlar tizimini takomillashtirish va loyihalashtirish;

oliy ta’lim muassasalari talabalarining chet tildagi kommunikativ kompetensiyasini oshirish uchun ingliz tilidagi badiiy asarlarini sahnalashtirish lingvotexnologiyalarni takomillashtirish.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida talabalarning chet tilda kommunikativ kompetensiyasini ingliz badiiy asarlari asosida lingvotexnologiyalarini takomillashtirish jarayoni bo‘lib, tajriba-sinov ishlari Farg‘ona davlat universiteti, Andijon davlat chet tillar instituti va Qarshi davlat universitetlarida o‘tkazildi va umumiy 682 nafar respondentlar ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini oliy ta’lim muassasalarida ekstensiv o‘qishni ingliz tilidagi badiiy asarlar asosida o‘rgatish, ularni sahnalashtirish orqali talabalarning chet tilda kommunikativ kompetensiyasini oshirishning mazmuni, shakllari, usullari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy (qiyosiy, analitik), diagnostik (kuzatish, suhbat, anketa) usullari, pedagogik eksperiment usuli, tajriba-sinov natijalarini qiyosiy tahlil qilish, umumlashtirish, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishlarida chet til o‘qitish mazmunining ingliz tilidagi zamonaviy badiiy asarlar va lingvistik, kulturologik, shaxsning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yondashuvlari orqali takomillashuvi, chet tilda

kommunikant va kognizant shaxsni rivojlantirishning lingvotexnologik jihatlari aniqlashtirilgan;

chet tilda ekstensiv o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishning lingvotexnologiyasi ingliz tilidagi badiiy asarlar, sahnalashtirish, improvizatsiya, rolli o‘yinlar, pantomima, rekonstruksiya, muhokama va guruhli faoliyat usullari refleksiv muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarning chet tilda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va proksimal rivojlanish zonasiga erishish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan ingliz badiiy asarlari asosidagi mashqlar sistemasi CEFR talablari asosida takomillashtirilgan;

talabalarining chet tilda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan ingliz badiiy asarlarini sahnalashtirish va dramatizatsiyalashtirishga asoslangan lingvotexnologik jihatlari ta’lim resurslariga integratsiyalash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

ingliz tilidagi badiiy asarlardan foydalangan holda talabalarning chet tilda kommunikativ kompetensiyasining nazariy va lingvodidaktik asoslari o‘rganilgan, uning ilmiy tavsifi ekstensiv o‘qish turi va adabiyotni o‘qitish metodikasi asosida tahlil qilingan;

xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishlarida ingliz tilini o‘qitish jarayonida og‘zaki muloqot malakalarini rivojlantirish va qo‘llashda xorijiy adabiy asarlardan foydalanish strukturasi va komponentlariga aniqlik kiritilgan;

talabalarning chet tilda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha mashqlar va baholash mezonlari tizimi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etilgan;

Farg‘ona davlat universiteti ingliz tili va adabiyoti fakultetida “English drama club” talabalar drama klubi tashkil etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan innovatsion texnologiyalar, metodlar va nazariy ma’lumotlarning asliyatdagi manbalardan olinganligi, mashqlar turkumi va tajriba-sinov ishlari natijalarining mukammal tahlili, ularning matematik-statistik metodlari asosida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan rasmiy tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ekstensiv o‘qish turini o‘rgatishning ilmiy-nazariy printsiplari tahlil qilinganligi, ingliz tilidagi badiiy asarlarni sahnalashtirishning o‘quv jarayonida tutgan o‘rni va holatining aniqlanganligi, shuningdek, ingliz tilidagi badiiy asarlarni sahnalashtirishdan foydalangan holda talabalarning chet tilda kommunikativ kompetensiyasini oshirishni ta'minlaydigan mashqlar algoritmi tuzilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ingliz tilidagi badiiy asarlarni sahnalashtirishning zamonaviy ta’lim usullari va lingvotexnologiyalari talabalarning chet tilda kommunikativ kompetensiyasini samarali oshirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi. Shuningdek, tadqiqotning amaliy ahamiyati “Tili o‘rganilayotgan til mamlakati adabiyoti” kursini o‘qitish uchun ishlab chiqilgan “**Developing of**

British and American literature» nomli darslikdan foydalanish mumkinligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarning chet tilda kommunikativ kompetensiyasini ingliz badiiy asarlari asosida takomillashtirish lingvotexnologiyalariga oid olingan ilmiy natijalar asosida:

xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishlarida chet til o‘qitish mazmunining ingliz tilidagi zamonaviy badiiy asarlar va lingvistik, kulturologik, shaxsning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yondashuvlari orqali takomillashuvi, chet tilda kommunikant va kognizant shaxsni rivojlantirishning lingvotexnologik jihatlarini jadallashuviga doir ilmiy asoslangan takliflari Farg‘ona davlat universitetida 2020-2022 yillarga amalga oshirilgan "ACCESS microscholarship English Program" S-UZ800-20-GR-0040 amaliy loyihasida foydalanilgan (Farg‘ona davlat universitetining 2024 yil 23 sentabrdagi № 04-5236 -son dalolatnomasi). Natijada ingliz badiiy asarlar asosida ekstensiv o‘qishni o‘rgatish metodikasi takomillashtirilgan;

ingliz tilidagi badiiy asarlar, sahnalashtirish, improvizatsiya, rolli o‘yinlar, pantomima, rekonstruksiya, muhokama va guruhli faoliyat usullari asosida chet tilda ekstensiv o‘qish kompetensiyasini rivojlantirishga doir xulosalar “Developing British and American literature” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2022-yil 30-dekabrdagi 429-sonli guvohnomasi). Natijada ingliz tilini o‘rganish jarayonida talabalarning chet tilda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga erishilgan;

talabalarning chet tilda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va proksimal rivojlanish zonasiga erishish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan ingliz badiiy asarlari asosidagi mashqlar sistemasiga oid takliflardan Farg‘ona davlat universitetida 2021-2022 yillarga amalga oshirilgan "ACCESS microscholarship English Program" S-UZ800-20-GR-0040 amaliy loyihasida foydalanilgan (Farg‘ona davlat universitetining 2024 yil 23 sentabrdagi № 04-5236 -son dalolatnomasi). Natijada talabalarga ingliz tilida kommunikativ kompetensiyasining oshirishning intensiv texnologiyalarini ishlab chiqish imkoniyati kengaytirilgan.

talabalarining chet tilda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ingliz badiiy asarlarini sahnalashtirish va dramatizatsiyalashtirishga asoslangan lingvotexnologik jihatlari ta’lim resurslariga integratsiyalashga oid takliflari Farg‘ona viloyat teleradiokompaniyasining “Xayrli kun”, “Yoshlar vaqti” ko‘rsatuvlarini tayyorlashda foydalanilgan (Farg‘ona viloyati teleradiokompaniyasining 2024 yil 26 sentyabrdagi 148 - son ma’lumotnomasi). Natijada ingliz badiiy asarlarini sahnalashtirish lingvotexnologiyasi imkoniyatlari kengaygan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot ishining asosiy natijalari 7 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya bo‘yicha jami 15 ta, shu jumladan, 1ta darslik, 3 ta o‘quv uslubiy ko‘rsatma chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, ulardan 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilindi.

Dissertasiyani tuzilishi va hajmi. Dissertasiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, asosiy matn 145 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot ob’ekti va predmeti tavsiflangan. Shuningdek, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumot berilgan.

Dissertatsiyaning **“Talabalarning chet tilda kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi oliy ta’lim muassasalarida chet til o‘qitishning asosiy (bakalavriat) bosqichida badiiy asarlardan foydalangan holda chet tilda kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish tahliliga bag‘ishlangan. Birinchi bobda chet tilda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda badiiy asarlarning mohiyati va o‘rni, badiiy adabiyotni o‘qitishning lingvodidaktik texnologiyalari, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarida badiiy asarlarni o‘rganish holati va muammolari ko‘rib chiqilgan. Mazkur bob badiiy asarlarni o‘qitish va dramaturgiyadan foydalanish og‘zaki nutqni rivojlantirishdagi samarali usullar sifatida ko‘rilganligi ilmiy muhokamasiga bag‘ishlangan.

Yuqori bosqichlarda chet til o‘qitishning amaliy maqsadi o‘qish va og‘zaki nutq malakalarini rivojlantirish bo‘lganligi tufayli, biz ingliz tilida o‘qish va og‘zaki nutq malakalarini, ayniqsa, ekstensiv o‘qish, badiiy asarlarni sahnalashtirish, rolli o‘yinlar integratsiyasi kontekstida takomillashtirish masalalarini ko‘rib chiqdik. Bu o‘rinda shuni alohida ta’kidlash kerakki, ko‘plab olimlar chet tilda o‘qish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish muammolarini auditoriyada intensiv o‘qish turidan foydalanish doirasida o‘rganganlar. Bu mavzuda olib borilgan ko‘plab tadqiqotlardan farqli ravishda dissertatsiyada ekstensiv o‘qish turidan auditoriya mashg‘ulotlarida foydalanish masalalariga e’tibor qaratilgan.

Adabiyotni o‘qitish chet tilda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning maqsad va vazifalariga mos kelish yoki yo‘qligini aniqlashtirish zarur deb hisoblandi. Shu sababdan, o‘qituvchilar tomonidan chet tilda adabiyotni o‘qitishda qo‘llaniladigan yondashuvlarga e’tibor qaratish katta ahamiyatga ega. Ushbu bobda oliy o‘quv yurtlarida “Tili o‘rganilayotgan mamlakat adabiyoti” kursini o‘qitishda foydalanilayotgan yondashuvlar va muammolarga e’tibor qaratilgan.

Tadqiqotimiz badiiy adabiyot til o‘rganishning har bir bosqichida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun samarali lingvotexnologiya sifatida e’tirof etilishi haqidagi ilmiy gipotezaga asoslanadi. Shu bilan birga, juda kam sonli tadqiqotlarda adabiyotning chet tillarni o‘rganish kontekstidagi rolini ta’lim ishtirokchilari, shu jumladan o‘qituvchilar va talabalar nuqtai nazaridan o‘rganib, ularning adabiyot haqidagi tasavvurlari va ularning ta’siriga e’tibor qaratgan. Chet tillar yo‘nalishi mutaxassislarini tayyorlash jarayonining tahlili

nazariy konsepsiyalar va badiiy adabiyotni amaliyotda qo‘llanilishi o‘rtasida tafovut borligini aniqladi. Izlanishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilar boshqa turdagi matnlar kabi badiiy adabiyotlardan foydalanmaydilar, talabalar esa mashg‘ulotlarda badiiy matnlarni o‘qishni unchalik yoqtirmaydilar. Adabiyot chet tillar ta’limida turli vazifalarni bajarib kelmoqda, ammo uning chet til o‘rgatishdagi roli va ahamiyati hozirgi kunga qadar zaruriy darajada aniqlashtirilmagan. Shu sababdan, badiiy asarlar ko‘pincha tadqiqot obyektiga aylanib, ularda asosan adabiy tanqidiy fikrlar olish va o‘qituvchilar yoki darsliklar tomonidan taklif qilingan interpretatsiyalarni o‘rganish maqsadida tahlil qilingan. So‘nggi o‘n yillikda badiiy adabiyotlar, birinchi navbatda, tarjima va bosqichma-bosqich tahlilni talab qiladigan matnlar sifatida ko‘rib chiqildi, bu esa har bir so‘zni batafsil o‘rganishni nazarda tutgan. Fikrimizcha, bunday yondashuvda adabiyotning “mohiyati”, uning ijodiy salohiyati, shuningdek, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish vositasi sifatidagi ahamiyati yo‘qoladi. Bunda o‘qishning asl maqsadi va mazmuniga putur yetadi: chet til mashg‘ulotlarida adabiy matnlarni o‘qish ko‘lami ularning estetik sifatlari va ulardan til o‘rganishda funksional qo‘llanilishi doirasidan ancha oshib ketadi, chunki talabalarning his-tuyg‘ulari, hikoya ishtirokchisiga aylanish va shaxsiy talqini ham hisobga olinadi.

Shuningdek, talabalarning adabiyot haqidagi fikrlari, ya’ni qaysi adabiy janr va mavzularni yoqtirishlarini ham ko‘rib chiqdik. Tadqiqotlar talabalar roman va hikoyalarni afzal ko‘rishlarini ko‘rsatdi. Qisqa hikoyalar, qisqaligi tufayli talabalar tomonidan qadrlanadi, chunki bu o‘qishni qiyinlashtirmaydi. Ayniqsa, ilmiy fantastika janri o‘ziga xos ilmiy va badiy xususiyatlari bilan alohida e’tiborga molik bo‘lib, uning qiziqarli jihatlari ilmiy jihatdan ham asoslab berilgan. Ushbu janrning mazmunida shubha va noaniqlik elementlari ustuvor o‘rin tutadi, shu bois talabalar uni o‘rganish jarayonida boshqa o‘quv matnlariga nisbatan kamroq qiyinchliklarga duch keladilar. Hikoyalar va romanlar odatda filmlar bilan bog‘liq bo‘lsa juda yaxshi qabul qilinadi. Talabalar, ayniqsa, mashg‘ulotlarda filmlardan foydalanishni qadrlaydilar. So‘rovnomalar natijalari shuni ko‘rsatdiki, ishtirokchilar o‘zga madaniyatni yaxshiroq tushunishga va adabiyotni o‘qishga yordam beruvchi filmlarni ko‘proq ma’qul ko‘radilar. Shu bilan birga, she’riyat talabalar tomonidan qiyinchilik bilan idrok qilinadi, ular tushunishda qiynaladilar va til o‘rganish uchun she’riy asarlardan foydalanishning muhim afzalliklarini ko‘rmaydilar. So‘rovnomalar natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalar badiiy adabiyotni (roman va qissalarni) afzal ko‘radilar. Badiiy matn o‘quvchilarning qiziqish va ehtiyojlariga mos kelsa, janrdan qat’i nazar, ular undan zavqlanishadi.

Chet tilda kommunikativ kompetensiya talabalarning tilni amaliyotda va real kommunikativ vaziyatlarda samarali qo‘llash malakasidir. Ushbu maqsadga erishish uchun nutq faoliyatining barcha turlarini — o‘qib tushunish, tinglab tushunish, og‘zaki va yozma nutqni o‘rgatish usullarini takomillashtirish zarur. Buning asosini esa drama, rolli o‘yinlar va xorijiy san’at asarlarini sahnalashtirishning integratsiyasi tashkil etadi va bu chet tilda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Biz badiiy asarlardan foydalanish metodikasini asosiy vazifalarini quyidagicha belgilab oldik:

1-rasm. Badiiy asarlardan foydalanish metodikasini asosiy vazifalari

Dissertatsiyani olib borish davomida ingliz badiiy adabiyotining o‘quv vositalarini ham o‘rgandik. Biroq, oliy ta’lim muassasalarida ingliz adabiyotini o‘qitishning hozirgi holati tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quv materialida mavzular, matnlar va mashqlar turlarini kommunikativ faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olmagan. Natijada, hozirda birinchi va ikkinchi kurs talabalari Tili o‘rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti fanini maqsadli o‘rganmayapti. Shuningdek, o‘tkazilgan so‘rovnomalar chet el adabiyotini o‘rganishda motivatsiyaning sust darajasini ko‘rsatdi.

Ushbu tadqiqot Farg‘ona davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti va Andijon davlat chet tillar instituti bazasida o‘tkazildi. Respondentlar xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishida tahsil olayotgan 625 nafar birinchi va ikkinchi kurs talabalarini tashkil etdi, chunki bu kursgacha talabalarning barchasi ingliz tilini kamida 8 yil va undan ko‘proq muddatda o‘rta maktablarda o‘rgangan. Olingan ma’lumotlar umumiy xulosalar va tegishli tavsiyalarni shakllantirish uchun statistik tahlildan o‘tkazildi.

Amaldagi fan dasturlari va OTM darsliklari bitiruvchilarga chet tilni zaruriy darajada o‘zlashtirishni ta’minlay olmaydi. Bundan tashqari, OTM o‘quv rejasiga ko‘ra, chet el adabiyoti asosan ikkinchi kursda o‘rganiladi. Ushbu kurs hali chet til bo‘yicha lug‘at zahirasi va leksik kompetensiyani talab darajasida rivojlantirmagan va ekstensiv o‘qish va og‘zaki nutq mashg‘ulotlari ushbu kursda tugaydi. Natijada, hozirgi vaqtda xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi bitiruvchilari C1 darajasida og‘zaki nutq kompetensiyasiga amalda ega emaslar. Shu sababli, chet tilda kommunikativ kompetensiyani takomillashtirishni to‘rtinchi kursga qadar, chet el adabiyotini o‘rganish bilan birga davom ettirish tavsiya etiladi, ya’ni og‘zaki nutq va o‘qish malakalarini o‘zlashtirish uchun yetarli miqdordagi soatlar ajratilishi kerak.

Ammo shuni ta’kidlash kerakki, tadqiqot doirasidan tashqarida ta’limning boshlang‘ich bosqichida chet til asoslarini o‘zlashtirishda ta’lim subyektlarining o‘quv faoliyatini an’anaviy vositalar va sahnalashtirishdan pedagogik, psixologik, metodik va iqtisodiy jihatdan asosli foydalanish va ta’minlash muammosi hal etilmagan; muayyan o‘quv kurslarini o‘qitishga qaratilgan sahnalashtirish va dramadan foydalanish texnologiyasi va algoritmi yetarlicha tavsiflanmagan; talabalarning chet tilda kommunikativ kompetensiyasi asoslarini badiiy asarlar va ularning boshqa aspektlari, shu jumladan o‘quv jarayonida raqamli texnologiyalardan (3D texnologiyasi) foydalangan holda badiiy asarlar yordamida o‘zlashtirish bo‘yicha mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish xususiyatlari aniqlanmagan.

Mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarida badiiy asarlarni sahnalashtirishdan foydalangan holda chet tilda kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish masalasining yetarlicha aniq nazariy ishlanmasini topmadik. Tadqiqotlar chet til o‘rgatishda kommunikativ yondashuv va raqamli texnologiyalarga asoslangan ingliz badiiy asarlarini sahnalashtirish, drama va rolli o‘yinlardan foydalanish yanada samaraliroq ekanligini ko‘rsatdi.

Shuningdek, chet el adabiyotini o‘rganish orqali talabalarning kommunikativ malakalarini oshirishga yetarlicha e’tibor berilmayotgani aniqlandi. Bu masala ilk bor lingvodidaktika kontekstida ko‘rib chiqilmoqda.

Sahnalashtirish va drama asosida talabalarning chet tilda kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirish muammosi hozirgi kunga qadar ilmiy-metodik adabiyotlarda zaruriy darajada yoritilmagan.

Ushbu dissertatsiya tadqiqotini olib borishga, bir tomondan, ta’limning bakalavriat bosqichida talabalarga chet tilda nutqiy faoliyatni o‘rgatish nazariyasi va metodikasining yetarli darajada ishlanmaganligi, ikkinchi tomondan, bu bosqichning bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy shakllantirishdagi muhimligi sabab bo‘ldi.

Dissertatsiyaning **“Talabalarning chet tilda kommunikativ kompetensiyasini badiiy asarlar asosida takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida “Tili o‘rganilayotgan mamalakat adabiyoti” va “O‘qish va yozuv” fani leksiya, seminar va auditoriya mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil etish va talabalar ehtiyojlarini hisobga olish muammolariga yechim topish maqsadida adabiyotni o‘qitish yondashuvlaridan foydalanish masalalari muhokama qilinadi.

Biz ta’lim sharoitimizga mos keladigan eng samarali yondashuv va usullarni aniqlash, ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish maqsadida chet el adabiyotini o‘qitishga yondashuvlarni ko‘rib chiqdik.(2-rasm)

O‘tkazgan ilmiy izlanishlarimizda chet til kontekstida adabiyotni o‘qitish yondashuvlarini samarali qo‘llashga salbiy ta’sir etuvchi oltita omil aniqlandi: yakuniy nazorat kabi imtihonga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi, guruhdagi talabalar sonining meyordan ortiqligi, o‘quv soatlari miqdorining chegaralanganligi, nutqiy kompetensiyaning zaruriy darajadan pastligi, talabalarda badiiy matnlarni o‘qishga nisbatan salbiy munosabatning mavjudligi va badiiy matnlarni tanlash.

Chet el adabiyotini o‘qitish yondashuvlariga doir ilmiy tahlillarimizni quyidagicha xulosaladik. Birinchidan, o‘qituvchilarni chet el adabiyotini o‘qitish metodikasi bo‘yicha o‘qitish katta ahamiyatga ega, chunki bu ularga bilim berish

bilan bir qatorda ularning o‘qitishga bo‘lgan ishonchini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, yetarli pedagogik ma’lumotlarga ega bo‘lgan o‘qituvchilar talabalarning adabiyotga bo‘lgan munosabatlariga ta’sir ko‘rsata oladi, bu esa o‘quv faoliyatini yaxshilashga olib keladi. Shuningdek, o‘qituvchilarga talabalarning kontekstiga mos keladigan o‘quv materiallarini diqqat bilan tanlash tavsiya etiladi, chunki bu talabalarning sxematik bilimlari va o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini faollashtiradi. Bu holat lingvistik kompetensiyasini oshirishga, mazmunni boyitish va tushunishga yordam beradi.



2-rasm. Chet el adabiyotini o‘qitish yondashuvlari

Fikrimizcha, adabiyotni o‘qitish uchun bir nechta lingvistik mashqlarni algoritmik tartibda tuzish ham o‘qituvchilarning dars jarayonida yondashuvdan foydalanishda tizimli bo‘lishiga yordam beradi. Shu sababli, tinglovchilarning yanada samarali ishtirok etish imkoniyatlarini ta’minlash mumkin. Xususan, adabiyotni o‘qitish modellarining har biridan o‘rgatish va o‘rganish jarayonida aniq maqsadlariga erishish uchun foydalanish mumkin. Masalan, badiiy matnlarda tildan foydalanishni ifodalash uchun lingvistik modeldan foydalanish maqbul usuldir. Darhaqiqat, modelning asosiy yo‘nalishi o‘qish materiallarining mazmuni haqida ma’lumot to‘plashga qaratilgan bo‘lib, u talabalarning aniq grammatik yoki leksik kategoriyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga urg‘u beradi. Biroq, bu yondashuv talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga kamroq e’tibor beradi. Boshqa tomondan, kulturologik model talabalarni dunyo bilan tanishtirish uchun yondashuv sifatida ishlatilishi kerak, chunki asosiy maqsad tili o‘rganilayotgan

mamlakatning mafkurasi, madaniyati, ijtimoiy va siyosiy istiqbollarini bilishga qaratilgan. Shunday qilib, ushbu yondashuvni chet tilni yuqoriroq darajada egallagan talabalar uchun qo‘llash maqsadga muvofiqdir, chunki talabalar ushbu model yordamida matnlarni sharhlashlari uchun tilni yaxshi egallash juda muhimdir.

Shu bilan birga, shaxsning individual ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish modeli lingvistik va kulturologik modeldan muayyan madaniy kontekstda chet tildan foydalanishiga e’tibor qaratadi. Ushbu modelni amalga oshirishda o‘qituvchilar talabalarni matnlar haqidagi his-tuyg‘ulari va fikrlarini o‘zlarining real hayotiy vaziyatlari bilan bog‘lash orqali ifodalashga undashlari kerak.

Ingliz badiiy asarlari asosida talabalarning chet tili kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishning lingvotexnologik modeli

1. METODOLOGIK ASOS

• kommunikativ-faoliyatga yo‘naltirilgan va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar;
• madaniyatshunoslik va matnmarkazli (tekstsentrik) yondashuvlar;
• interaktiv, shaxsga yo‘naltirilgan va integrativ ta’lim prinsiplari.

2. MODEL TAMOYILLARI

- lingvomadaniy autentiklik;
- interaktivlik;
- bosqichma-bosqichlik (reseptivdan produktiv faoliyatga o‘tish);
- dramatizatsionlik;
- refleksivlik.

3. MODEL TUZILMASI

Maqsadli komponent
• chet tili kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish; xususiy vazifalar: til, sotsiomadaniy va diskursiv kompetensiyalarni shakllantirish; nutqiy ijodiy faoliyatga motivatsiyani kuchaytirish.

Mazmuniy-faoliyatli komponent
• ekstensiv o‘qish lingvotexnologiyalari: matn tahlili, muhokama, rekonstruksiya, rolli improvizatsiya;
• sahnalashtirish va dramatizatsiya lingvotexnologiyalari: insenirovka, pantomima, repetitsiyalar, mini-sahna ko‘rinishlari;
• interaktiv shakllar: guruhli ish, loyihalar, debatlar, sahnaviy mashqlar.

Natijaviy-baholovchi komponent
• mezon va ko‘rsatkichlar: til va kommunikativ ko‘nikmalarning o‘sishi, motivatsiyaning ortishi, og‘zaki nutq va sahnaviy talqin ko‘nikmalarining yaxshilanishi.

5. MODELNI AMALGA OSHIRISH BOSQICHLARI

1. Motivatsion-tayyorlov bosqichi
2. Kognitiv-reseptiv bosqichi
3. Interaktiv-produktiv bosqichi

6. KUTILAYOTGAN NATIJALAR

- chet tili bo‘yicha kompleks kommunikativ kompetensiyaning (lingvistik, sotsiomadaniy, diskursiv va strategik komponentlar) rivojlanishi;
- badiiy va dramatik kommunikatsiya vaziyatlarida nutqiy o‘zaro ta’sirga kirishish qobiliyatining shakllanishi;
- matn bilan ijodiy muloqot orqali chet adabiyoti va tiliga qiziqishning ortishi;
- til orqali o‘zini ifoda etish vositasi sifatida sahnaviy talqin ko‘nikmalarining shakllanishi.

Biz “Extensive Reading Course” (Ekstensiv o‘qish kursi) fakultativ kursi uchun o‘quv dastur ishlab chiqdik. O‘quv kursi mazmunini zamonaviy badiiy asarlar tashkil etadi. Ushbu kurs “TOMA” kursi bilan parallel ravishda o‘rganiladi. Kurs talabalar ishtirokida tanlangan badiiy asarlar asosida tuzilgan. Talabalarning psixologik xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlari hisobga olingan.

Tadqiqotlarimiz amaliy mashg‘ulotlarda ingliz tilidagi kitob, gazeta va jurnallarni muntazam o‘qishni ekstensiv o‘qish turidan foydalangan holda tashkil etish Proksimal Rivojlanish Zonasiga (PRZ - Zone of Proximal Development) intensiv o‘qish turidan foydalanganga nisbatan tezroq yetishini isbotladi. Talabalar tabiiy ravishda o‘qish ko‘nikma va malakalarini, so‘z boyligi va madaniyatga oid bilimlarini rivojlantirishda davom etadilar. Ammo til o‘rganuvchilar proksimal rivojlanish zonasiga faqat tirishqoqlik bilan o‘qish va amaliyotdan so‘ng erishadilar. Belgilab olgan vazifalarimizga muvofiq, biz PRZga erishish uchun ikkita muhim shartni muhokama qildik. (katta hajmdagi leksikani o‘zlashtirish va tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyatini tushunish).

Shu bilan birga ingliz tilidagi badiiy asarlardan foydalanish bo‘yicha mashqlar sistemasi ham taqdim etilgan. Biz ekstensiv o‘qish turini rivojlantirish uchun bir qator mashqlar va tavsiyalarni ishlab chiqdik, masalan: Guessing vocabulary activities; Titles and subheadings. Reading and Studying the Text Outside Class. Accountability. Evaluation. Passage and Comprehension Questions. Passage and Outline.



3-rasm. Badiiy asarlardan ekstensiv o‘qish turida foydalanish metodlari

Dissertatsiya ishini olib borish davomida ingliz tilidagi badiiy asarlarni sahnalashtirish va dramatizatsiya usuli uchun lingvotexnologiyalar ishlab chiqdik.



4-rasm. Ingliz tilini o‘qitishda sahnalashtirish metodi

Ingliz tilini o‘rgatish jarayonida adabiyotni o‘rganish og‘zaki nutq va tinglab tushunish malakalarini rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Og‘zaki o‘qish, dramatizatsiya, improvizatsiya, rolli o‘yinlar, pantomima, rekonstruksiya, muhokama qilish va jamoa bo‘lib ishlash faoliyati badiiy asarga qaratiladi.

5-rasm. Dramatizatsiya uslublari

Ushbu tadqiqotning maqsadi chet el adabiyotini o‘qitishda samarali lingvotexnologiyalardan foydalanish bo‘yicha bir qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo‘ldi. Mazkur maqsadni hisobga olgan holda, xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishida ingliz adabiyotini o‘qitishda badiiy asarlarni sahnalashtirish va dramatizatsiyadan foydalanishning turli modellarini loyihalash va ishlab chiqishga harakat qilindi.

Drama texnikasidan chet tilni o‘qitishda amaliy vosita sifatida foydalanish mumkin. Drama til o‘rganuvchini auditoriyadan tashqariga olib chiqib, ijodkorlik va ko‘p qirralilik marralariga erishishga undaydi. Drama talabalarni autentik vaziyatlarga olib chiqadi, ularning yashirin ijodkorlik qobiliyatlarini yuzaga chiqaradi va o‘zga shaxslar oldida o‘zini namoyon qilish va fikrini ifoda etish qo‘rquvini yengishga imkon beradi. Drama chet tilni kontekstga joylashtirib beradi; bu talabalarga real hayotiy vaziyatlarda muvaffaqiyatga erishish tajribasini va ularga auditoriyadan tashqaridagi dunyoni zabt etish ishonchini beradi. Boshqacha aytganda, drama faoliyati to‘g‘ri amalga oshirilsa, u til o‘rganuvchiga yo‘naltirilgan muhitni yaratadi, bunda asosiy e’tibor tilga yoki o‘qituvchiga emas, balki talabaga qaratiladi.

Biz tomonimizdan ingliz tilini o‘qitishda dramatizatsiya yondashuvi ishlab chiqildi va takomillashtirildi. Sahnalashtirishlar talabalarga chet tildan amaliyotda foydalanishlarini ta’minlaydi va ularning nutqini ravon qilish, fikrni to‘liq ifodalash,

motivatsiya, jismoniy harakatlar bilan ishtirok etishga, shuningdek, shaxslararo muloqotga kirishish imkoniyatini beradi.

Dissertatsiyaning **“Talabalarga ingliz tilidagi badiiy asarlarni o‘rgatishning eksperimental tadqiqi”** deb nomlangan uchinchi bobida talabalarning ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan lingvotexnologiyani amaliyotga joriy etishning asosiy bosqichlari haqida so‘z boradi.

Eksperimentning asosiy maqsadi bo‘lajak chet til o‘qituvchilarini tayyorlashda dramatizatsiya, sahnalashtirishning samaradorligini aniqlashdan iborat bo‘ldi. Ushbu maqsadga muvofiq, tadqiqotga quyidagi vazifalar kiritildi:

1. Bo‘lajak pedagoglar drama faoliyatining ta’siri haqida qanday fikrga ega:

a) chet tilda muloqot;

b) madaniyatlararo kompetensiyani takomillashtirish;

c) yakka yoki guruhda ishlash qobiliyati va

d) so‘z boyligi, gapirish va tinglab tushunish malakalarini rivojlantirish.

2. Bo‘lajak o‘qituvchilarning drama kursini ta’lim jarayoniga kiritish bo‘yicha qanday takliflari bor?

2021-2025-yillarda Farg‘ona davlat universiteti, Andijon davlat chet tillar instituti, Qarshi davlat universitetining xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) fakultetlarida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Ushbu tajriba-sinov ishlarida 682 nafar talaba jalb etildi (1-jadvalga qarang). “Tili o‘rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti” va “Uy o‘qishi” kurslarida talabalar bilan birgalikda badiiy asarlarni aniqlashdan boshlanadi.

1-jadval

Tajriba-sinov ishlari olib borilgan hududlar va tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan respondentlar

№	Ta’lim muassasasi	Jami talabalar soni	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
			TG	NG
1	Farg‘ona davlat universiteti	228	113	115
2	Andijon davlat chet tillar instituti	225	112	113
3	Qarshi davlat universiteti	229	115	114
Jami		**682**	**340**	**342**

Eksperimentning birinchi bosqichida tadqiqot dasturi uchun materiallar to‘plandi, intervyu, suhbatning turli shakllaridan foydalanilgan, shu jumladan tadqiqot maqsadiga muvofiq 21 ta savol tayyorlangan.

So‘nggi o‘n yil davomida ham tajribalar o‘tkazilib borilgan. Talabalar tomonidan ingliz tilidagi badiiy asarlardan sahna ko‘rinishlari tashkil etilgan. (Margaret Mitchelning "Shamollarda qolgan hislarim" asari, Skott Fitsjeraldning “Shovvoz Getsbi”, Luiza Mey Alkottning “Kichkina ayollar”).

Tadqiqot ishida biz auditoriyada ekstensiv o‘qishdan foydalanish samaradorligini ham sinab ko‘rdik. Dissertatsiya ishini bajarish davomida ekstensiv o‘qishni o‘rgatish metodlaridan yetarli darajada foydalanilmayotganini aniqladik. Vaholanki, o‘qishning bu turi chet tilda o‘qish malakalarini rivojlantirishda nisbatan

samarali va foydalidir, chunki u tilni egallash darajasi, o‘qish layoqati va o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabatini oshiradi.

